



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

yosh avlodni rizqni qadrlash va tejamkorlikka o'rgatadi. Shuningdek, *“Osh kattadan, suv-kichikdan”* maqoli ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. “Xalqimizning qadimiy odatlaridan biri shuki, xoh oila davrasida bo'lsin, xoh to'y-ziyofatlarda bo'lsin, dasturxonga osh yoki boshqa ovqat olib kelib qo'yilsa, uni yeyishni eng birinchi bo'lib, to'rda o'tirgan qariya yoki boshqalardan yoshi katta odam boshlab beradi, kichiklar odob saqlab o'tirib, undan keyin oshga qo'l uzatadilar. Shuningdek xalqimizda mehmondorchilikka kirib kelganda va ovqatlanib bo'lib chiqib ketayotganda mehmonlarning qo'liga suv quyib turish odati ham bor. Bu xizmat kichiklardan bo'ladi. Mazkur maqolni aytish bilan yoshlarga shu tartib, udum eslatiladi va unga amal qilishga da'vat etiladi.” (Шомақсудов, Шорахмедов, 2001, 282-bet)

2. Ijtimoiy birlashtiruvchi funksiya. O'zbek madaniyatida osh, choy kabi birliklar odamlarni bir joyga jamlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. *“Osh bo'lmasa, to'y bo'lmas”* maqoli ham to'y va marosimlarning asosiy birlashtiruvchi unsuri sifatida palovning ramziy kuchini ko'rsatadi. Choy esa suhbat va do'stlikning ramzi bo'lib, *“Choy ichmagan do'st — do'st emas”* maqolida ifodasini topgan.

3. Axloqiy funksiya. Maqollarda gastronomik birliklar orqali xalqning axloqiy qadriyatlari ifodalanadi. Masalan, *“Tuz totgan joydan o'zingni tortma”* maqoli sadoqat va do'stlikka sodiqlikni targ'ib qiladi. Shu orqali tuz oddiy oziq-ovqat emas, balki axloqiy mezon darajasiga ko'tariladi.

4. Madaniy identifikatsiya funksiyasi. O'zbek xalqining milliy o'zligi, an'analari va tarixiy xotirasi maqollardagi gastronomiklar orqali ham namoyon bo'ladi. Non, osh, tuz, choy kabi birliklar o'zbek xalqining madaniy kodlari bo'lib, ular boshqa xalq maqollaridagi shunga o'xshash obrazlar bilan qiyoslanganda o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, ingliz maqolida *“Bread is better than the song of birds”* deyilsa, o'zbeklarda non baraka va hayotning eng asosiy timsoli sifatida ko'rsatiladi.

O'zbek xalq maqollarida turmush tarzi va ijtimoiy hayot bevosita gastronomik kodlar orqali ifodalanadi. Chunki xalqning ovqatlanish odatlari, marosimlari va kundalik turmush jarayonlari milliy mentalitetning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Gastronomiklar bu jarayonda ramziy vosita bo'lib xizmat qiladi hamda xalq hayotining turli qirralarini ochib beradi.

Avvalo, xalqning mehnat faoliyati gastronomik kodlarda yaqqol aks etadi. *“Non topmagan el — el emas”*, *“Mehnat qilgan qornini to'ydirar”* kabi maqollar orqali non va oziq-ovqat mehnatning asosiy samarasi sifatida talqin qilinadi. Bu esa xalq tafakkurida mehnat va rizqning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Marosim va an'analarda ham gastronomik kodlar muhim o'rin tutadi. Masalan, to'y va yig'inlarda oshning pishirilishi, mehmonlarga choy tortilishi xalqning birlik, mehmondo'stlik va saxovat kabi qadriyatlarini aks ettiradi. Shu bois *“Osh bo'lmasa, to'y bo'lmas”*, *“Choy ustida gap ko'p”* kabi maqollar xalqning marosimiy turmush tarzini ko'rsatadi. Shuningdek, axloqiy qadriyatlar ham gastronomik kodlarda

mujassam. *“Tuz totgan joydan o‘zingni tortma”* maqoli insonlar o‘rtasidagi sadoqat va do‘stlikni mustahkamlashga qaratilgan. *“Nonni hurmat qilmagan — odamni hurmat qilmas”* maqoli esa xalqning axloqiy tamoyillarini yoritadi.

Maishiy hayot tasvirida ham gastronomik kodlar keng qo‘llanadi. Oddiy ovqatlanish jarayoni ham maqollarda ijtimoiy mazmun kasb etadi: *“Qornini to‘ydirmagan ish qilmas”*, *“Sut bilan og‘iz chaygan odamning so‘zi toza bo‘lar”*. Bu maqollar orqali xalqning hayotiy tajribasi va maishiy odatlari ifodalanadi.

Demak, o‘zbek xalq maqollarida gastronomik kodlar xalq turmush tarzining barcha sohalarini qamrab oladi: mehnat, marosim, axloqiy qadriyatlar va kundalik hayotiy jarayonlarni. Shu jihatdan ular xalqning milliy tafakkuri, ma‘naviy dunyosi va ijtimoiy-madaniy hayotini tadqiq etishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Maqollarda gastronomik birliklarning qo‘llanishi o‘zbek xalqining hayot falsafasini anglashda muhim manba vazifasini bajaradi. Ular tarbiyaviy, ijtimoiy, axloqiy va madaniy funksiyalarga ega bo‘lib, xalqning birligini mustahkamlash, mehnatga undash, saxovat va qanoat kabi fazilatlarini targ‘ib etishga xizmat qiladi. Shuningdek, lingvomadaniy yondashuv asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, gastronomik birliklar xalqning milliy o‘zligini anglash va madaniy merosini o‘rganishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Demak, maqollardagi gastronomik kodlarni tadqiq etish o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy hayoti, tafakkuri va an‘anaviy qadriyatlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. (2001). *Маънолар маҳзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати)*. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. Тошкент.

Mirzayev T. R., Musoqulov A., Sarimsoqov B. (2005). *O‘zbek xalq maqollari*. Toshkent.

Маслова В. (2001). *Лингвокултурология*. Москва.

Жўраева Б. (2019). *Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари*. Филол. фан. доктори ... дисс. – Самарқанд.

Ибатова А. (2022). *Ўзбек тилида нон ва нон маҳсулотлари билан боғлиқ лугавий бирликлар тадқиқи*. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд.

BUXORO JANUBIY TUMANLARI AYRIM OYKONIMLARINING SEMANTIK TAHLILI

Intizora Axmatova*

Jamshid Sharopov*

Annotatsiya

Maqolada Buxoro viloyatining janubiy tumanlari hisoblangan Qorako'l va Olotdagi oykonimlar semantik-etimologik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Ularning shakllanish jarayonlari hamda nomlar uchun asos bo'lgan motivlar misollar asosida dalillangan. Onomastik leksika tarkibidagi so'zlar nomlanish jarayonida ijtimoiy va iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy ehtiyojlarni qoplash, qondirish uchun oykonimik obyektlarni nomlaydi: *apellyativ so'zlar > onomastik leksika sathi > onomastik leksika + oykonimik obyektga nom berish ehtiyoji > oykonimik obyekt nomlanadi > nom shakllanadi*. Oykonimlarning hosil bo'lishida kishi nomlaridan, kasb-kor nomlari, o'simlik nomlaridan hosil bo'lgan joy nomlarini kuzatish mumkin. Grammatik tarkibi bo'yicha oykonimlar appellativ asosdagi, topoformant va indikatorli oykonimlarga bo'linadi. Oykonimlarning grammatik tarkibi onomastik-konversiya, morfologik va grammatik usullar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: toponim, toponimiya, oykonim, Qorako'l, Olot, toponimning shakllanishi, topoformant, appelyativ so'z, onomastik leksika, indikator.

The Semantic Analysis of Certain Toponyms in the Southern Districts of Bukhara

Abstract

This study examines the oykonyms of Karakul and Alat, the southern districts of Bukhara region, from a semantic-etymological perspective. The processes of their formation and the underlying motives for the names are substantiated through examples. In the naming process, words in the onomastic lexicon designate oykonymic objects to address social, economic, cultural, and educational needs. This process follows the pattern: appellative words > onomastic lexical level > onomastic lexicon + need to name an oykonymic object > oykonymic object is named > name is formed. In the creation of oykonyms, one can observe place names derived from personal names, occupation names, and plant names. Grammatically, oykonyms are categorized into appellative-based, topoformant, and indicator oykonyms. The grammatical structure of oykonyms is analyzed using onomastic-conversion, morphological, and grammatical methods.

* Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi, i.h.axmatova@gmail.com

* Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi djsharopov@gmail.com

Keywords: toponym, toponymy, oykonym, Qorako‘l, Olot, toponym formation, topoformant, appellative word, onomastic lexicon, indicator.

Ma‘lumki, joy nomlarini atovchi birliklar mavjud sabab, qonuniyat va ehtiyoj natijasida paydo bo‘ladi. Demak, geografik obyektning nomi obyektiv sabab asosida yuzaga keladi. Toponimlarning shakllanishi jarayonlari so‘zlarda kuzatilganidek, lingvistik qonuniyat, me‘yor va talablarga mos bo‘ladi hamda nomlar hudud aholisi til xususiyatlarini aks ettirgan holda yuzaga keladi.

Hududda ko‘plab oykonimlar mavjudki, ular uzoq tarix davomida shakllangan hamda o‘ziga xos semantik va etimologik xususiyatlarni namoyon etgan. Biz quyida janubiy tumanlardagi ayrim oykonimlarni tahlil qilamiz.

Ahillik – Qorako‘l tumanidagi ko‘cha nomi. Lug‘ati *ahil* so‘ziga *o‘zaro juda totuv munosabatli, inoq-ittifor* tarzida sharhlangan. *Ahillik* so‘zining *ahil munosabat, shunday munosabatli holat* kabi ma‘nosi borligi ko‘rsatilgan. Mazkur nom viloyatning G‘ijduvon tumanidagi qishloq, shuningdek, Jondor, Kogon, Olot, Qorovulbozor, Vobkent tumanlarida ko‘cha nomi sifatida uchraydi.

Aminlar – qishloq. Qorako‘l tumani. *Amin* so‘zi O‘rta Osiyo xonliklarida *qishloq oqsoqoli* yoki *daha boshlig‘i; bozor oqsoqoli; bozorlarda soliq undiruvchi amaldor* singari ma‘nolarni ifodalaydi. Aslida *amin* arabcha so‘z bo‘lib, “ishonchli” degan ma‘no anglatadi. Hozirda Romitan tumanida *Amino (Aminho)* nomli qishlog‘i bo‘lib, “*aminlar*” ifodasini beradi.

Arna – Qorako‘l tumanidagi mahalla va aholi punkti nomi. Arna – Xorazm shevasida *bosh kanal*; Jizzax shevasida *kichik jar*; shimoliy o‘zbek shevalarida *daryo o‘zani, quruq o‘zan* kabi ma‘nolarda qo‘llanadi.

V.V.Radlov ushbu so‘zni *jarlik, kanal, soylik, jar* ma‘nolarida ishlatilishini hamda uning juda qadimiyligini qayd etib, *Arna* so‘zi “*daryodan hosil bo‘lgan kanal*” (Радлов, 303) deb izohlangan.

V.V.Bartoldning ma‘lumotiga ko‘ra, *arna* Xorazmcha so‘zdan yuzaga kelgan bo‘lib: “10-asrlarda Xorazm hududida boshqa eroniylar uchun tushunarsiz bo‘lgan xalq hali o‘zining ona tilida gapirishda davom etgan hamda hatto yozma hujjatlarda qo‘llanilgan, bizningcha, bu til keyinchalik forsiy deb surib chiqarilmagan, turkiy til deya qaralgani, shubhasiz, Xorazmiy tilining qoldiqlari, sug‘orishning ayrim sun‘iy terminlari hisoblangan (*yop* – kichkina kanal, *arna* – katta kanal)”. V.V.Bartoldning so‘zlaridan quyidagi sitata keltiriladi: “Xorazmiy tili o‘zbek tili leksikasining Xorazm shevalarida o‘z izini qoldirgan, jumladan, sug‘orishda xorazmiy terminlari saqlanilgan: *yop* – “kichkina kanal, ariq”, *arna* – “katta kanal” (Народы Средней Азии и Казахстана.140). Ushbu fikrni o‘zbek olimi yanada rivojlantirdi: “Xorazmda kichkinalari – “*yop*”, katta kanallar “*arna*”, deb nomlangan (Гулямов, 294).

V.V.Bartold *arna* terminining areali haqida fikr yuritib, bu so‘zning faqat Xiva va turkmanlarda uchrashini ko‘rsatgan (Бартольд, 122).

Aytish o‘rinliki, *arna* termini Jizzax viloyatining Zomin, Jizzax, G‘allaorol, Forish tumanlarida ham keng qo‘llanadi hamda “jarning quruq o‘zani” ma’nosida ishlatiladi.

Arna so‘zi “magistral kanal va oqim”, “quruq o‘zan, jar”, “daryo”, “daryo o‘zani” kabi ma’nolarga ega.

S.P.Tolstovning fikricha, *arna* – “*manba, kalit*” ma’nosini ifodalaydi (Толстов, 81).

Y.G‘ulomovning ta’kidlashicha, *arna* kanallarning keng qismlari, asosiy va katta kanallar demakdir. “*Arna*” atamasi ostida uning “*oroldan ajralgan yoki sayoz, daryoning qismi, oqimi*”ni tushunish mumkin. Sun’iy kanallarga nisbatan ushbu atamaning ishlatilishi quyidagicha tushuntiriladi, so‘nggisi kattaligi bo‘yicha daryoning qismi sifatida baholangan. Masalan: *Shovotarna, Paxtaarna, Otaliqarna, Polvonarna*. Shuningdek, bu atama bilan *Kesikarna, Bog‘lanarna* sifatidagi Amudaryoning shu kabi oqimlari ham nomlangan (Гулямов, 1957, 243-b.).

Ayoqquduq – quduq. Qorako‘l tumani. Toponim ikki qismdan iborat: ayoq+quduq. Ayoq aslida turkiy so‘z bo‘lib, hozirgi kunda oyoq shaklida qo‘llanadi. Toponimiyada bu so‘z ikki ma’noda qo‘llanilganligini kuzatish mumkin: 1) *odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o‘rmlashi uchun xizmat qiladigan a’zo* ma’nosidan kelib chiqqan oxir, *odoq* ma’nosi; 2) *kosa, yog‘och kosa, tovoq, idish* (Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 90–91-betlar)

Oyoq va quduq so‘zlari o‘zaro birikib, *oxirgi quduq, so‘nggi quduq* kabi ma’noni ifodalagan. Toponim gidronim asosida paydo bo‘lgan.

Bahoriston – Olot tumanidagi aholi punkti. *Bahoriston* so‘zi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “*gullab-yashnagan bog*” ma’nosini ifodalaydi va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha keltiriladi: “*Bahorga makon bo‘lgan, doim yashnab turgan o‘lka, mamlakat*”.

Balxiyon – Olot tumanidagi mahalla nomi. Z.Do‘simov mazkur toponimni “*Balxlilar*” degan ma’nini anglatishini qayd etadi (Дўсимов, Эгамов, 25-bet). Nomning birinchi komponenti *Balxi* –*balx//balq//baliq* tarzida shakllanib, u “*shahar*”, “*qo‘rg‘on*”, “*qishloq*” kabi ma’nolarni bildiradi. Ikkinchi komponenti *yon* – tomon ma’nosidadir.

T.Nafasov *Qashqadaryo qovchinlarining balxi urug‘i mavjud*, deya qayd etgan (Нафасов, 2009, 51-b.)

Ikkinchi izoh bo‘yicha, *Balx* Shimoliy Afg‘onistonda, hozirgi Mozori Sharif shahrining g‘arbidagi ko‘hna shahar. Shahar eramizdan oldin VII asrlardan ma’lum bo‘lib, *Ummul Bilod (Shaharlar onasi)* deb yuritilgan va mazkur shahar G‘arb va Sharqni bo‘glab turgan “Buyuk ipak yo‘li”dagi yirik savdo markazlaridan biri bo‘lgan.